	<b>Mas'uliyat va mustaqillik</b>	1.O'ziga biriktirilgan uskunalarning texnik holati, uzluksiz ishlashini tashkil etish;
		2.O'rtacha murakkablikdagi qarorlarni qabul qilish;
		3.Mustaqil ishlash;
		4.Ichki mehnat tartibiga rioya etish
<b>Texnik va/yoki texnologik talab</b>		<p>Yoqilg'i uzatish uskunalari: konveyerlar, elevatorlar, podachiklar, qabul/saqlash bunkerlari, dozatorlar;</p> <p>privod va uzatmalar: elektr dvigatellar, reduktorlar, muftalar, podshipnik uzellari, baraban/roliklar, tormoz va natyajka uzellari;</p> <p>aspiratsiya va ventilyatsiya: aspiratsiya tizimi, chang tutgich (filtr/siklon), ventilyatorlar, havo kanallari;</p> <p>Boshqaruv va himoya: boshqaruv shiti/shkafi, avtomatika va himoya apparatlari (avtomat, kontaktor, rele), signalizatsiya/blokirovkalar, avariya to'xtatish tugmalari;</p> <p>nazorat-o'lchov vositalari: ampermetr/voltmetr yoki multimetr, texnologik indikatorlar, harorat va vibronazorat vositalari, tezlik/ siljish/ tiqilish datchiklari;</p> <p>texnik xizmat va ta'mirlash: ko'tarish moslamalari (domkrat), moylash vositalari (maslyonka), qo'l asboblari va zaxira qismlar minimal to'plami, payvandlash apparati;</p> <p>xavfsizlik vositalari: muhofaza qopqoqlari va to'siqlar, yong'in o'chirgichlar, shaxsiy himoya vositalari (kaska, ko'zoynak, qo'lqop, respirator, quloqchin)</p>

Kasblar nomi:	Issiqlik texnikasi ustasi	
Mashg'ulotlar nomining kodi:	31139	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etilmaydi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Issiqlik uskunalarini ekspluatatsiyasi yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lsa – ushbu yo'nalish bo'yicha kamida 3 oy ish staji; boshqa yo'nalishdagi texnik mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lsa – Issiqlik uskunalarini ekspluatatsiyasi sohasida kamida 6 oy ish staji; o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lsa – issiqlik uskunalarini ekspluatatsiyasi sohasida kamida 3 yil ish staji.	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Maxsus ruxsatlar (talablar): 18 yoshga to'lgan bo'lishi; ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; yo'nalishi bo'yicha o'rta maxsus yoki oliy ma'lumotga ega bo'lishi; mutaxassisligi bo'yicha kamida 3 oy stajirovka (amaliy ish tajribasi) o'tagan hamda malakaviy komissiya imtihonidan muvaffaqiyatli o'tgan bo'lishi. Ishga munosabati va xulq-atvori (shaxsiy kompetensiyalar): kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; ishlab chiqarish maqsadlariga erishish uchun o'z vakolati doirasida qarorlar qabul qilish va harakatlarni amalga oshirish; ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan ishlarni tashkil eta olish; jamoani boshqara olish; mehnat muhofazasi va xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	O'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	<b>TMR bo'yicha malaka darajasi:</b>	<b>Kasbning nomi:</b>

	3	Qozonxona mashinisti
	3	Yoqilg'i uzatish mashinisti
	3	Avtomatik yoqilg'i uzatish motorchisi
	4	Issiqlik texnikasi texnigi
	6	Sex (uchastka) boshlig'i
	6	Sex smena boshlig'i
	6	Muhandis-teplotexnik
	6	Issiqlik texnikasi muhandisi
	7	Bosh muhandis o'rinbosari
	7	Bosh muhandis
<b>Mehnat funksiyalarining tavsifi</b>		
<b>Kodi va nomi</b>	<b>Mehnat vazifalari</b>	
D1.5- Yoqilg'i sexi (uchastkasi)ning ishini boshqarish	<b>O'qitish natijalari</b>	
	<b>Mehnat harakatlari:</b>	
	1.Yoqilg'i sexi (uchastkasi, brigadasi) ishini boshqarish	
	2.Yoqilg'i sexi (uchastkasi, brigadasi) ishchilari (brigadalar)ni mehnat faoliyatini muvofiqlashtirish	
	3.Texnologik jarayonlarga rioya etilishini nazorat qilish, ularning buzilish sabablarini tezda aniqlash va bartaraf etish choralarini ko'rish	
	4.Xodimlari tomonidan ishlab chiqarish sanitariyasi va yong'in xavfsizligi qoidalarining bajarilishini nazorat qilish	
	5.Yoqilg'i uzatish asosiy va yordamchi uskunalarini barqaror ishlashini ta'minlash	
	<b>Ko'nikmalar:</b>	
	Texnologik jarayonni uzluksiz olib borish uchun zarur bo'lgan resurslar bilan ta'minlash	
	Asbob-uskunalar olishga talabnomalar tuzish	
	Operativ - texnik hujjatlarni yurita olish, hisobotlarni tuzish	
	O'z lavozim vakolati doirasida vaziyat talab qilganida zudlik bilan qaror qabul qilish va amalga oshirish	
	Operativ muzokaralar olib borish	
	Yuzaga kelgan holat bo'yicha ma'lumot berish	
	Ishlab chiqarishda sex (uchastka, brigada) yuklatilgan vazifalarni sifatli va muddatida bajarish maqsadida jamoani boshqara olish	
Ish joylarida mehnat va yong'in xavfsizligi talablariga rioya etilishini nazorat qilish		
Ishlab chiqarishda jarohatlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish		
Ish joylarini to'g'ri tashkil qilish va yorug'likni ta'minlash		
<b>D1.01.5- Yoqilg'i sexi (uchastkasi)ning ishini tashkillashtirish</b>		

		Ish joylarini texnik ta'minlanganligini tashkillashtirish
		<p><b>Bilimlar:</b></p> <p>Yoqilg'i uzatish uskunalarning texnik tuzilishi, turlari, ishlash prinsipi</p> <p>Yoqilg'ilarning turlari, xossalari</p> <p>Ekspluatatsiya va texnika xavfsizligi qoidalari</p> <p>Elektr qurilmalarni tuzilishi</p> <p>Texnik va operativ hujjatlarni yuritilish tartibi</p> <p>Ichki lokal hujjatlar, lavozim yo'riqnomasi, ko'rsatmalar, instruksiyalar</p> <p>Ichki mehnat tartibi</p> <p>Mehnat faoliyatini tartibga soluvchi mehnat xavfsizligi, sanoat va yong'in xavfsizligi, sanoat sanitariyasi va yong'indan himoya qilish talablari</p> <p>Birinchi yordam ko'rsatish choralari</p>
	D1.02.5- Yoqilg'i uzatish uskunalarini ekspluatatsiyasini amalga oshirish	<p><b>Mehnat harakatlari:</b></p> <p>1.Yoqilg'i uzatish uskunalarni texnik parametrlarini va ishlab chiqarish texnologiyasiga qo'yilgan talablarni saqlab turish</p> <p>2.Yoqilg'i uzatish tizimida yuzaga keladigan nosozliklar va avariya holatiga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni aniqlash va bartaraf etish choralarni ko'rish</p> <p>3.Yoqilg'i uzatish uskunalarni ishga tushirish, o'chirish va sinovdan o'tkazishda ishtirok etish</p> <p>4.Yoqilg'i uzatish uskunalarni turli mavsumiy sharoitlarda ishlashga tayyorlash</p> <p><b>Ko'nikmalar:</b></p> <p>Ish joylarini texnik ta'minlanganligini tashkillashtirish</p> <p>Chizmalar, sxemalar va texnik ko'rsatmalarni o'qish</p> <p>Uskunalarini ish holatini kuzatish</p> <p>Nazorat-o'lchov vositalarining ko'rsatmalariga muvofiq uskunaning texnik holatini aniqlash</p> <p>Texnik xizmat ko'rsatish muddatlarini qisqartirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish</p> <p>Mavjud standartlarni, texnik shartlarni va uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha boshqa qoidalar va ko'rsatmalarni ishlab chiqish va o'zgartirish</p> <p>Texnik hujjatlarni yuritish va saqlash</p> <p><b>Bilimlar:</b></p>

		Nazorat-o'lchov vositalarining ko'rsatmalarini o'qish
		Chizmalar, sxemalar va texnik ko'rsatmalarni o'qish
		Yoqilg'i turlari, me'yorlari va xossalari
		Texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari
		Issiqlik mexanikasi asoslari
		Standartlar, texnik shartlar, sifat ko'rsatkichlari standartlari, texnologik ko'rsatmalar, tashkilotda ishlab chiqarishni texnik nazorat qilish tizimlari, vositalari va usullari
		Ichki mehnat qoidalari
		Ekspluatatsiya va texnika xavfsizligi qoidalari
		Elektr uskunalari tuzilishi
		Birinchi yordam ko'rsatish qoidalari
<b>Mas'uliyat va mustaqillik</b>		1.O'z qo'l ostidagi xodimlar ishini boshqarish;
		2.Yoqilg'i sexi (brigada)ga qarashli uskunalarning texnik holati, uzluksiz ishlashini tashkil etish;
		3.O'rtacha murakkablikdagi qarorlarni qabul qilish;
		4.Mustaqil ishlash;
		5.Ichki mehnat tartibiga rioya etish
D2.5- Yoqilg'i sexi (uchastkasi) uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashni amalga oshirish	D2.01.5-Yoqilg'i uzatish uskunalariga texnik xizmat ko'rsatishni ta'minlash	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1.Yoqilg'i uskunalarini issiqlik sxemalariga muvofiq o'chirib-yoqishlarda qatnashish
		2.Uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha bajariladigan ishlarni tashkillashtirish
		3.Uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish jarayonini nazorat qilish
		4.Uskunalarini xavfsiz ishlashini ta'minlash
		5.Uskunalariga operativ texnik xizmat ko'rsatilishini tashkillashtirish
		6.Yoqilg'i uzatish uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan asboblarni, materiallarni, ehtiyot qismlarni, himoya vositalarini ajratilishi uchun talabnomalar kiritish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Nazorat-o'lchov vositalarining holatini, ularning ish joyida mavjudligini tekshirish va baholash
		Yoqilg'i uzatish uskunalarining texnik holatini baholash
Uskunalarda yuzaga keladigan oddiy nosozliklarni aniqlay olish		

		Chizmalar, sxemalar va texnik ko'rsatmalarni o'qish
		Uskunaning to'g'ri ishlash rejimini tiklash
		Uskunaning avariya holatini oldini olish
		Ish rejimini tekshirish, uskunaning shikastlanishini va nuqsonlarini aniqlash
		Uskunalarni ekspluatatsiya qilish, yong'in va mehnat xavfsizligi talablariga rioya etish
		<b>Bilimlar:</b>
		Yoqilg'i uzatish uskunalarining turlari, ishlash prinsiplari
		Yoqilg'i turlari, me'yorlari va xossalari
		Texnologik jarayon ketma-ketligi
		Chizmalar, sxemalar va texnik ko'rsatmalarni o'qish
		Biriktirilgan hududda uskunalarining joylashuvi
		Uskunalarda yuzaga keladigan oddiy nosozliklarni aniqlash olish usullari
		Yoqilg'i uzatish uskunalarining texnik holatini baholash turlari
		Uskunalarni ekspluatatsiya qilish, yong'in va mehnat xavfsizligi qoidalari
		Issiqlik mexanikasi asoslari
		Standartlar, texnik shartlar, sifat ko'rsatkichlari standartlari, texnologik ko'rsatmalar, tashkilotda ishlab chiqarishni texnik nazorat qilish tizimlari, vositalari va usullari
		Ichki mehnat qoidalari
	D2.02.5- Yoqilg'i uzatish uskunalarini ta'mirlashni ta'minlash	1.Yoqilg'i uzatish uskunalaridagi nosozliklar, buzilishlarni aniqlash va ularni ta'mirlash uchun bildirgi kiritish
		2.Yoqilg'i uzatish uskunalarida ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur bo'ladigan asboblarni, materiallarni, ehtiyot qismlarni, himoya vositalariga talabnoma kiritish
		3.Yoqilg'i uzatish uskunalarini kapital ta'mirlashdan so'ng qabul qilib olish
		4.Ta'mirlash ishlarida qatnashish
		5.Yoqilg'i uzatish uskunalarini ta'mirlash uchun talab etiladigan hujjatlarni to'g'riligi va o'z vaqtida shakllantirilishini ta'minlash
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Texnologik sxema, chizmalar va texnik hujjatlarni o'qish
		Uskunalarining texnik parametrlarini tahlil qilish

		Yoqilg'i uzatish uskunasi joriy ta'mir rejasini texnik xizmat ko'rsatish jadvalini ishlab chiqish
		Yoqilg'i uzatish uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish, joriy ta'mirlash uchun zarur bo'ladigan uskunalar, asboblari va ehtiyot qismlarga bo'lgan ehtiyojni hisoblash
		Ehtiyot qismlari, materiallari va asboblarga talabni shakllantirish
		Yoqilg'i uzatish uskunalarida ishlarni bajarishda xavflarni baholash va xavflarni aniqlash
		Uskunalarining texnik parametrlarini tahlil qilish
		Nazorat va o'lchov vositalari, asboblardan foydalanish
		Shaxsiy va jamoaviy himoya vositalarini qo'llash
		Tasarrufidagi xodimlarining mehnat sharoitlarini mehnat xavfsizligi, sanoat, yong'in va ekologik xavfsizlik talablariga muvofiqlikni ta'minlash
		Birinchi yordam ko'rsatish
		<b>Bilimlar:</b>
		Yoqilg'i uzatish uskunalarini ekspluatatsiyasiga tegishli bo'lgan me'yoriy-huquqiy, ma'muriy hujjatlarda qo'yilgan talablar
		Yoqilg'i uzatish uskunalarini ekspluatatsiyasi bo'yicha texnik hujjatlar
		Uskunalarda aniqlanadigan nosozliklari turi va ularni bartaraf etish usullari
		Foydalanilayotgan nazorat va o'lchash asboblari, shu jumladan xavfsizlik moslamalardan ishlatish tartibi va asosiy xususiyatlari
		Texnik diagnostika asoslari
		Asboblari, materiallari va ehtiyot qismlarining nomenklaturasi, ishlatish me'yorlari
		Issiqlik mexanikasi asoslari
		Standartlar, texnik shartlar, sifat ko'rsatkichlari standartlari, texnologik ko'rsatmalar, tashkilotda ishlab chiqarishni texnik nazorat qilish tizimlari, vositalari va usullari
		Ichki mehnat qoidalari
		1.O'z qo'l ostidagi xodimlari ishini boshqarish;

	<b>Mas'uliyat va mustaqillik</b>	<p>2.Yoqilg'i sexi (brigada)ga qarashli uskunalarning texnik holati, uzluksiz ishlashini tashkil etish;</p> <p>3.O'rtacha murakkablikdagi qarorlarni qabul qilish;</p> <p>4.Mustaqil ishlash;</p> <p>5.Ichki mehnat tartibiga rioya etish</p>
<b>Texnik va/yoki texnologik talab</b>		<p>Yoqilg'i uzatish tizimi uskunalari: konveyerlar, elevatorlar, podatchiklar, bunker va dozatorlar;</p> <p>Haydovchi va uzatma qismlari: elektr dvigatellar, reduktorlar, mufta, podshipnik uzellari, tormoz/rolıklar;Changni tutish va ventilyatsiya: aspiratsiya tizimi, chang tutgich (filtr/siklon), ventilyator va havo kanallari;</p> <p>Boshqaruv va himoya vositalari: boshqaruv shiti, avtomatika va himoya apparatlari (rele, avtomat, kontaktor), signalizatsiya va blokirovkalar;</p> <p>Nazorat-o'lchov vositalari: bosim/harorat datchiklari, vibronazorat yoki oddiy vibroindikator, ampermetr/voltmetr (yoki multimetr), texnologik ko'rsatkichlar uchun indikatorlar; Ta'mirlash va montaj uchun jihozlar: ko'tarish moslamalari, payvandlash apparati, moylash moslamalari;</p> <p>Xavfsizlik va himoya vositalari: to'siqlar va himoya qopqoqlari, yong'in o'chirgichlar, shaxsiy himoya vositalari (kaska, ko'zoynak, qo'lqop, respirator, quloqchin).</p>

Kasblar nomi:	Issiqlik texnikasi muhandisi	
Mashg'ulotlar nomining kodi:	21513	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash markazida tavsiya etilmaydi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Oliy (texnik) ma'lumotga ega bo'lishi hamda texnik lavozimlarda mutaxassisligi bo'yicha kamida 6 oy ish stajiga ega bo'lishi.	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>Maxsus ruxsatlar (talablar):  18 yoshga to'lgan bo'lishi;  ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi;  yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lishi;  mutaxassisligi bo'yicha kamida 3 oy stajirovka (amaliy ish tajribasi) o'tagan hamda malakaviy komissiya imtihonidan muvaffaqiyatli o'tgan bo'lishi.  Ishga munosabati va xulq-atvori (shaxsiy kompetensiyalar):  kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish;  ishlab chiqarish maqsadlariga erishish uchun o'z vakolati doirasida qarorlar qabul qilish va harakatlarni amalga oshirish; ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan ishlarni tashkil eta olish;  jamoalar bilan ishlash va zarur hollarda jamoani boshqara olish;  kasbiy malakasini va shaxsiy rivojlanishini muntazam takomillashtirib borish;  xavfsizlik texnikasi hamda mehnat muhofazasi qoidalariga qat'iy rioya qilish</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Qo'shimcha kasbiy ta'lim-malaka oshirish dasturlari	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	-	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	<b>TMR bo'yicha malaka darajasi:</b>	<b>Kasbning nomi:</b>
	3	Qozonxona mashinisti
	3	Yoqilg'i uzatish mashinisti
	3	Avtomatik yoqilg'i uzatish motorchisi
	4	Issiqlik texnikasi texnigi
	6	Sex (uchastka) boshlig'i
	6	Sex smena boshlig'i
	7	Bosh muhandis o'rinbosari
7	Bosh muhandis	

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
E1.6-Yoqilg'i uzatish uskunalarning uzluksiz ishlashini, texnik holatini ta'minlash	E1.01.6-Uskunalarni ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish, ishga tushirish va sinovdan o'tkazish jadvalini bajarilishini tashkillashtirish va nazorat qilish	<b>O'qitish natijalari</b>
		<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1.Texnik foydalanish qoidalari va ko'rsatmalarga muvofiq uskunaning texnik holati va ishlashini kuzatib borish
		2.Yoqilg'i uzatish uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish jadvallarini ishlab chiqish
		3.Yoqilg'i uzatish uskunalarini profilaktik tekshiruvlar, muntazam, o'rta va kapital ta'mirlashni tashkil qilish
		4.Uskunalar, asboblardan va ehtiyot qismlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash
		5.Yoqilg'i uzatish uskunalarini buzilish va nosozliklar holatlarini tahlil qilish va ularning oldini olish choralarini ko'rish
		6.Ta'mirlash paytida, ta'mirlash va montaj ishlaridan so'ng uskunalarni o'rnatilishini nazorat qilish, pasportlarga va tegishli texnik hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish
		7.Xavfli ishlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha rejalar ishlab chiqish
		8.Kapital ta'mirdan so'ng yangi uskunalar va tizimlarni ishga tushirishda qatnashish
		9.Qoidalarga muvofiq xavfsizlik tizimlarining texnik holatini ta'minlash.
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Yoqilg'i uzatish uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish jadvallarini ishlab chiqish
		Uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish, rekonstruksiya qilishni nazorat qilish
		Sinov va ta'mirlash ishlaridan keyin uskunalarining texnik holatini tekshirish
		Ekspluatatsiya parametrlarini me'yorlarga muvofiqligini tahlil qilish
		Uskunalar holatining ekspluatatsiya talablariga muvofiqligini aniqlash
		Yoqilg'i uzatish uskunalarini ishdan chiqishi va nosozliklari hamda texnologik jarayonni buzilish sabablarini tahlil qilish
		Uskunalarini ishlash parametrlarini ruxsat etilgan chegaradan chiqish holatlarini oldini olish choralarini ko'rish
		O'lchov vositalari ko'rsatkichlarini tahlil qilish
Boshlash va to'xtatish operatsiyalarni bajarilishi to'g'riligini baholash		

		Ekspluatatsion va texnik hujjatlar bilan ishlash
		Amaldagi me'yorlar asosida moddiy-texnik resurslar hamda shaxsiy va jamoaviy himoya vositalariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash
		Uskunalar va uning ishlashidagi nosozliklarni qayd etish
		Hujjatlarni rasmiylashtirish
		Shaxsiy kompyuter va tashqi qurilmalar, orgtexnikadan foydalanish
		Maxsus dasturlardan foydalanish
		Shaxsiy va jamoaviy himoya vositalarini qo'llash
		<b>Bilimlar:</b>
		Asosiy va yordamchi elektr jihozlarning ishlash prinsipi
		Yoqilg'i uzatish uskunalarida aniqlanadigan nosozliklar turi va ularni bartaraf etish usullari
		Uskunalarni ta'mirlashga tayyorlash uchun ish joylarini tayyorlash ishlarini xavfsiz bajarilishi, xodimlar xavfsizligi tizimlarini tekshirish tartibi
		Texnik va texnologik jarayonlarning texnik hujjatlari
		Uskunalarining texnik parametrlarini tahlil qilish
		Uskunalarni ishga tushirish va to'xtatish algoritmi
		Elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish texnologiyasi
		Nazorat va o'lchov vositalari va asboblaridan foydalanish
		Moddiy-texnik resurslarni iste'mol qilish me'yorlari
		Yoqilg'i uzatish uskunalarida ishlarni bajarishda xavflarni baholash va xavflarni aniqlash
		Yoqilg'i uzatish uskunalarini ishlashi vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning turlari, ularning paydo bo'lish sabablari va oldini olish va bartaraf etish usullari
		Shaxsiy va jamoaviy himoya vositalarini berish me'yorlari
		Foydalanuvchi darajasida shaxsiy kompyuterda ishlash qoidalari, faoliyat sohasida ishlatiladigan dasturiy ta'minot

		Mehnat xavfsizligi, sanoat, yong'in va ekologik xavfsizlik talablari
		Shaxsiy kompyuter va uning tashqi qurilmalari, ofis texnikasidan foydalanish
	E1.02.6-Yoqilg'i uzatish sexi (uchastkasi) ishining samaradorligini oshirish, uskunalarni modernizatsiya qilish choralarini ishlab chiqish	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1.Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan tashkiliy va texnik tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda qatnashish
		2.Moddiy-texnik resurslardan samarali foydalanish choralarini ko'rish
		3.Yoqilg'i resurslarini o'z ehtiyojlari uchun sarfi va texnologik yo'qotishlarni me'yorlarga muvofiqligi ustidan nazorat qilish
		4.Yoqilg'i resurslarini tejash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni samarali sarflash to'g'risida taklif ishlab chiqish
		5.Eskirgan uskunalarni almashtirish, modernizatsiya qilish bo'yicha takliflar tayyorlash
		6.Yangi uskunalar va yanada ilg'or texnologik jarayonlarni joriy etish rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish
		7.Yoqilg'i uskunalarni ishlatish va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganib, umumlashtirish va tatbiq etish bo'yicha takliflar tayyorlash
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Uskunalar ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha hisobotlarni yaratish uchun dastlabki ma'lumotlarni tayyorlash
		Texnik xizmat ko'rsatishda yuqori xavfli ishlarni bajarilishi
		Yoqilg'i uzatish uskunalarni ishlashi to'g'risida hisobotlarni tayyorlash
		Moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanish choralarini ishlab chiqish
		Maxsus dasturlardan foydalanish
		Shaxsiy kompyuter, orgtexnikadan foydalanish
		<b>Bilimlar:</b>
		Yoqilg'i uzatish uskunalarning turlari, tuzilishi va ishlash prinsipi
	Yangi uskunalarni joriy etishni tartibga soluvchi sanoat hujjatlari, ilg'or texnologiyalar	

		Uskunalarni ishlashida energiya tejamkor texnologiyalar
		Texnik hisob-kitoblarni amalga oshirish va uskunalarning samaradorligini aniqlash usullari
		Ixtirochilik va innovatsion faoliyat asoslari
		Yoqilg'i sarfi me'yorlari
		Nazariy mexanika asoslari
		Issiqlik dinamikasi asoslari
		Elektrotexnika asoslari
		Materialshunoslik asoslari
		Ishlarni bajarish jarayonida shaxsiy va jamoaviy himoya vositalaridan foydalanish
		Amaldagi dasturda shaxsiy kompyuterda foydalanuvchi darajasida ishlash qoidalari
<b>Mas'uliyat va mustaqillik</b>		1.Tasarrufidagi xodimlarning ishini boshqarish;
		2.Yoqilg'i sexi (uchastkasi) uskunalarini ishonchli, xavfsiz va tejamkor ishlashini ta'minlash;
		3.Uskunaning avariya holatini oldini olish;
		4.Ish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni tezda hal qilishning maqbul yo'nalishini tanlash;
		5.Mehnat muhofazasi va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etilishini ta'minlash;
		6.Ichki mehnat tartibiga rioya etish.
E2.6- Yoqilg'i uzatish sexiga tegishli texnik hujjatlarni yuritish, saqlash va ishlab chiqish	E2.01.6- Ish jarayonida talab qilinadigan texnik hujjatlar bilan ta'minlash	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1.Ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ko'rsatmalar, ish jadvallari, texnik hujjatlarni ishlab chiqish, takomillashtirish
		2.Ishlab chiqarish uchun kerakli texnik hujjatlarni saqlash
		3.Eskirgan texnik hujjatlarni yangilash bo'yicha ishlarni bajarish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Hisobotlarni tuzish tartibi
		Hisobotlarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan standartlar, texnik reglament, hujjatlar (ko'rsatmalar)
Uskunalarining texnologik sxemalari, chizmalari va pasportlarini tuzish		

		<p>Texnologik sxemalar, umumiy hamda maxsus chizmalar va texnik hujjatlarni o'qish</p> <p>Standartlar, texnik xususiyatlar, ishlab chiqish bo'yicha ko'rsatmalar va texnik hujjatlarni rasmiylashtirish</p> <p>Uskunalarni ekspluatatsiyasiga taalluqli bo'lgan loyiha va texnik hujjatlarni mavjud talablarga muvofiqligini tekshirish</p> <p>Texnik hujjatlarni ishlab chiqish</p> <p>Shaxsiy kompyuter va uning tashqi qurilmalari, ofis texnikasidan foydalanish</p> <p><b>Bilimlar:</b></p> <p>Me'yoriy-huquqiy, ma'muriy va texnik hujjatlarga qo'yilgan talablar</p> <p>Texnologik sxemalar, uskunalarning vazifasi va ishlash prinsipi</p> <p>Uskunaning ishlashini me'yordagi va cheklangan ko'rsatkichlari</p> <p>Amalda bo'lgan standartlar, texnik shartlar, texnik hujjatlar</p> <p>Me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi talablari</p> <p>Maxsus dasturlardan foydalana olish</p> <p>Amaldagi dasturda shaxsiy kompyuterda foydalanuvchi darajasida ishlash qoidalari</p> <p>Mehnat xavfsizligi hamda sanoat, yong'in va atrof-muhit xavfsizlik talablari</p> <p>Shaxsiy kompyuter va uning tashqi qurilmalari, ofis texnikasidan foydalanish</p>
	<b>Mas'uliyat mustaqillik va</b>	<p>1.Tasarrufidagi xodimlarning ishini boshqarish;</p> <p>2.Yoqilg'i sexi (uchastkasi) uskunalarini ishonchli, xavfsiz va tejamkor ishlashini ta'minlash;</p> <p>3.Uskunaning avariya holatini oldini olish;</p> <p>4.Ish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni tezda hal qilishning maqbul yo'nalishini tanlash;</p> <p>5.Mehnat muhofazasi va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etilishini ta'minlash;</p> <p>6.Ichki mehnat tartibiga rioya etish.</p>
<b>Texnik va/yoki texnologik talab</b>		<p>IESning issiqlik-energetik uskunalari: qozon agregati va yordamchi tizimlar, issiqlik almashinuvchilar, nasoslar, quvur tarmoqlari va armaturalar, gaz-havo yo'llari, yoqilg'i tayyorlash/ uzatish uzellari;</p>

	<p>Avtomatika va boshqaruv: Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish elementlari, boshqaruv shiti, datchiklar va ijro mexanizmlari, himoya, blokirovka va signalizatsiya tizimlari;</p> <p>Nazorat-o'lchov va diagnostika vositalari: manometr/ vakuummetr, termometr/ pirometr, rasxodomer, gaz-analizator (zaruratga ko'ra), vibrodiagnostika vositalari, elektr o'lchov asboblari (multimetr, klesh), izolyatsiya o'lchagich (megometr).</p> <p>Sozlash, balanslash va sinov uskunalari: sozlash va funksional sinov vositalari, kalibrovka jihozlari, termotexnika hisob-kitoblari va rejim xaritalari uchun hisoblash/dasturiy vositalar (PK va profil dasturlar).</p> <p>Texnik xizmat va ta'mirlashni tashkil etish uchun: ko'tarish moslamalari, qo'l asboblari, zaxira qismlar va materiallar minimal to'plami, texnik hujjatlar to'plami (pasport, sxema, reglament, jurnallar).</p> <p>Xavfsizlik vositalari: energiya manbalarini uzib-qulflash va birka/belgi qo'yish tartibi, yong'in o'chirgichlar, gaz xavfsizligi vositalari (zaruratga ko'ra), shaxsiy himoya vositalari (kaska, ko'zoynak, qo'lqop, respirator, quloqchin).</p>
--	---

## V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

### 5.1. Kasbiy standartning rekvizitlari

1.	Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining tasdiqlash hujjatlari:	Energetika sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining 2026-yil 1-maydagi 3-son bayoni
2.	Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining xulosasi:	KS-0108-son xulosa, 05.03.2026
3.	Kasbiy standart talqini va ishlab chiqilgan sanasi:	1-talqin, 02.03.2026
4.	Taxminiy qayta ko'rib chiqish sanasi:	02.03.2031

### 5.2. Kasbiy standartni ishlab chiqishga mas'ul tashkilot

#### “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ

(tashkilot nomi)

**Boshqaruv raisining o'rinbosari**

**A.T. Djurayev**

(rahbarning lavozimi, imzosi va F.I.O.)

#### Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxonalar) to'g'risida ma'lumot

T/r	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1.	“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ Generatsiya bosh boshqarmasi boshlig'i	Salimyorov G.
2.	“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ Generatsiya bosh boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari	Qirg'izboev J.
3.	“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ Mehnat munosabatlari bo'limi bosh mutaxassisi	Saidnazarova N.
4.	“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ, Xodimlar bilash ishlash boshqarmasi bosh mutaxassisi	Zarifov T.
5.	“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ “Sirdaryo IES” filiali Moliya-iqtisod bo'limi boshlig'i	Mamarizaev A.
6.	Shirin energetika texnikumi kafedra mudiri	Xudoyqulov X.



**ENERGETIKA SOHASIDA KASBIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH  
BO'YICHA TARMOQ KENGASHI**

**KASBIY STANDART**

**ISSIQLIK ELEKTR STANSIYALARIDA YOQILG'I  
UZATISH USKUNALARINI ISHLATUVCHILAR VA  
TA'MIRLOVCHILAR**